Аннотация. В данной статье проанализированы факторы повышения производительности труда и стратегии управления в швейно-трикотажной промышленности. В исследовании основное внимание уделено технологической модернизации, развитию человеческого капитала, системе мотивации, контролю качества и логистическим процессам. Проведено сравнительное исследование национальной и международной практики, показавшее, что низкая производительность в основном связана с устаревшими технологиями и недостаточной квалификацией кадров. Результаты исследования свидетельствуют о том, что повышение производительности труда требует обновления технологий, подготовки рабочей силы и внедрения международных стандартов качества.

Ключевые слова: швейно-трикотажная промышленность, производительность труда, технология, человеческий капитал, мотивация, контроль качества, логистика, стратегии управления.

KIRISH

Tikuv-trikotaj sanoati milliy iqtisodiyotda muhim o'rin tutadigan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi korxonalar aholi bandligini ta'minlash, ichki bozordagi talabni qondirish va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar taqdim etish orqali iqtisodiy o'sish jarayonlariga katta hissa qo'shadi. Xususan, O'zbekistonda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirishi va tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashi bilan bir qatorda, mahalliy ishchi kuchidan samarali foydalanish imkoniyatini ham yaratadi.

Global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar, xususan mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, yangi texnologiyalarning joriy etilishi va iste'molchilar talablarining diversifikatsiyasi soha korxonalaridan yuqori samaradorlik bilan ishlashni taqozo etmoqda. Mazkur jarayonda mehnat unumdorligini oshirish nafaqat ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi, balki mahsulot sifatini yaxshilash, ishchi kuchi malakasini oshirish, raqobat ustunliklarini shakllantirish va global bozorlarda muvaffaqiyat qozonishning muhim shartiga aylanadi.



Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali va murakkabdir. Ular orasida ishchi kuchining kasbiy tayyorgarligi va malaka darajasi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish, resurslarni tejash va optimal taqsimlash, logistika tizimining samaradorligi, shuningdek boshqaruv tizimining zamonaviy talablarga mosligi alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, korporativ boshqaruvning samarali shakllarini joriy etish, ishchilarning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilishi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash mehnat unumdorligi o'sishida hal qiluvchi o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligini oshirish istiqbollari yuqori bo'lib, bu yo'nalishdagi islohotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Soha korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik modernizatsiya qilish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, bu esa raqamli boshqaruv elementlarini keng joriy etish va avtomatlashtirish tizimlarini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratmoqda.

Boshqaruv amaliyotida zamonaviy menejment va strategik yondashuvlarning keng tatbiq etilishi natijasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, inson resurslaridan optimal foydalanish hamda mehnat jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari kengayadi. Ishchi kuchining malakasini oshirish, ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Prognozlarga ko'ra, texnologik modernizatsiya va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish orqali mahsulot birligiga to'g'ri keladigan ish vaqti sezilarli darajada qisqaradi, resurs sarfi kamayadi, natijada mehnat unumdorligi barqaror o'sish sur'atiga ega bo'ladi.

Mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv strategiyalari tizimli va maqsadli yondashuvni talab etadi. Bunday strategiyalar qatoriga raqamli ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, inson kapitali salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan korporativ ta'lim tizimini shakllantirish, ishchilar uchun motivatsiya va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ilg'or menejment usullarini tatbiq etish yo'nalishlari kiradi.

Shunday qilib, tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligini oshirish omillari va boshqaruv strategiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga egadir. Bu orqali korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, milliy iqtisodiyotdagi ulushini mustahkamlash va global bozordagi mavqeini yanada kuchaytirish mumkin bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. Mustapaevning fikriga ko'ra, tikuvchilik sohasida qiymat zanjiri tahlili yosh ishchilarning sexlardagi bilim va ko'nikmalaridagi bo'shliqlarni, ularni ish joyini tez-tez o'zgartirishga majbur qiladigan mavjud cheklolarni aniqlaydi hamda qishloq hududlarda tikuvchilik ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish bo'yicha istiqbolli imkoniyatlarni ko'rsatadi [1].

Bheda, Rajesh, A. S. Narag va M. L. Singla o'z tadqiqotlarida Hindiston tikuv-trikotaj sanoati ishlab chiqaruvchilarining mahsuldorlik darajalarini jahonning boshqa davlatlari ishlab chiqaruvchilari bilan taqqoslab baholagan. Ular mahsuldorlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlab, uni oshirishga qaratilgan strategik takliflarni ishlab chiqqan [2].

R. A. Joy va hamkorlarining tadqiqotida Bangladeshdagi tikuv-trikotaj sanoatida Total Quality Management (TQM) yondashuvini joriy etish orqali sifat, mehnat unumdorligi va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari o'rganilgan. "DMC Apparels Ltd." tikuv sexida aniqlangan asosiy to'rt xil nuqson — kesilmagan ip, asimmetrik (up-down), singan tikish va noto'g'ri ulanish (joint stitch) kabi xatolarni kamaytirishga yo'naltirilgan [3].

D. Vafoyevaning tadqiqotlari esa korxonalarda resurslarni rejalashtirish tizimlarini joriy etishda tashkilotga bog'liq bo'lgan kuch omillarni — bozorda raqobatbardoshlik ustunligini yaratadigan xususiyatlar, raqobatchilar tomonidan korxonaga qarshi qo'llanilganda zarar keltirishi mumkin bo'lgan jihatlar hamda tashkilotning ichki muhitida mavjud bo'lgan omillar yoki zaifliklarni — ko'rib chiqishga qaratilgan [4].

S. Mahajan, H. Saini va A. Kaur Ludhiyanadagi (Hindiston) sakkizta o'rta hajmli trikotaj korxonalarida so'rovnoma o'tkazgan. 120 nafar respondentdan olingan ma'lumotlar ishchilarning ish unumdorligi texnik ko'nikmalar va tayyorgarlikning yetishmasligi sababli past yoki o'rta darajada ekanini ko'rsatgan. Asosiy muammolar sifatida ishchilarning ko'pchiligida kasbiy tayyorgarlikning yo'qligi, rag'batlantirish choralari yetarli emasligi, past maosh va noqulay ish sharoitlari qayd etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish xodimlari samaradorligini oshirish uchun ehtiyojdan kelib chiqqan o'quv kurslarini tashkil etish va kamida minimal ta'lim asoslarini majburiy qilish zarurligi xulosasiga kelingan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligini oshirish omillari va boshqaruv strategiyalari turli usullar asosida o'rganildi. Avvalo, tizimli tahlil orqali mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar — ishchi kuchi, texnologiya, resurslar va boshqaruv jarayonlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Empirik tahlil



jarayonida soha korxonalaridan olingan statistik ma'lumotlar, so'rovlar va intervyular asosida amaldagi holat baholandi. Shuningdek, qiyosiy tahlil orqali O'zbekiston tajribasi Janubiy Koreya, Turkiya va Xitoy kabi davlatlar amaliyoti bilan solishtirildi. Iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilib, mehnat unumdorligi o'sishiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning o'zaro uyg'unligi ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini belgilaydi. Texnologiya darajasi, ishchi kuchining malakasi, boshqaruv tizimlari va rag'batlantirish mexanizmlari mehnat unumdorligi o'sishining asosiy determinantlari sifatida namoyon bo'lgan (1-jadval).

1-jadval. Tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlili

Omillar	Aniqlangan holatlar	Tahlil natijalari
Texnologiya va avtomatlashtirish	Korxonalarning 45%ida zamonaviy texnologiyalar mavjud emas	Texnika bazasi pastligi ish sikllarini uzaytiradi, unumdorlikni pasaytiradi
Ishchi kuch malakasi	60% ishchilar maxsus qayta tayyorlov kurslaridan o'tmagan	Malaka pastligi mahsulot sifati va tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi
Rag'batlantirish tizimi	40% korxonalarda ish samaradorligiga bog'liq bonus tizimi yo'q	Ishchi kuchini rag'batlantirish mexanizmlari yetarli emas
Sifat nazorati	Korxonalarning yarmida standartlashgan QC tizimi yo'q	Birinchi o'tkazish samaradorligi past, yo'qotishlar yuqori
Logistika va ta'minot	55% korxonalarda xom-ashyo ta'minotida kechikishlar mavjud	Bu ish jarayonida uzilishlar va ish vaqti yo'qotilishlariga sabab bo'ladi

Tahlildan ko'rinib turibdiki, tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligini oshirish uchun ishchi kuchini qayta tayyorlash, texnologik modernizatsiya va samarali rag'batlantirish tizimlarini joriy etish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Birinchi jadvalda mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar prognoz tahlil asosida baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonalarning texnologik bazasini yangilash va avtomatlashtirish jarayonlarini kengaytirish ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi hamda umumiy samaradorlikni 25–30 foizga oshirish imkonini beradi. Ishchi kuchining qayta tayyorlov kurslarida muntazam ishtirok etishi esa malaka darajasini yuksaltiradi, bu esa mahsulot sifati va ishlab chiqarish tezligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi.

Rag'batlantirish tizimlarini kengaytirish, xususan, bonus va KPI mexanizmlarini joriy etish natijasida xodimlarning mehnatga bo'lgan qiziqishi va mas'uliyati oshadi. Sifat nazoratini xalqaro ISO standartlariga muvofiqlashtirish mahsulot raqobatbardoshligini mustahkamlaydi, ta'minot zanjirini optimallashtirish esa ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta'minlaydi (2-jadval).

2-jadval. Milliy va xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili

Yo'nalishlar	O'zbekiston amaliyoti	Xalqaro amaliyot (Koreya, Turkiya, Xitoy)
Texnologiya	Asosan qo'l mehnati va yarim avtomatlashgan jarayonlar	Avtomatlashtirilgan liniyalar, robotlashtirilgan tizimlar
Malaka va tayyorgarlik	Cheklangan qayta tayyorlash dasturlari	Davomiy qayta tayyorlash va innovatsion o'quv dasturlari
Rag'batlantirish tizimi	Ish haqi ko'proq staj va lavozimga bog'liq	KPI, ish unumdorligi va sifat ko'rsatkichlariga bog'langan
Sifat boshqaruvi	QC tizimlari cheklangan	ISO, Lean, Six Sigma standartlari asosida samarali nazorat
Logistika va ta'minot	Ko'pincha kechikishlar va ortiqcha zaxiralar	ERP va SCM tizimlari asosida optimallashtirilgan ta'minot

Bu qiyosiy tahlildan ko'rinib turibdiki, milliy amaliyotdagi asosiy cheklovlar texnologiya darajasi va inson kapitali rivojlanishida namoyon bo'ladi. Ikkinchi jadvalda O'zbekistondagi amaliyot xalqaro tajribalar bilan solishtirilgan. Natijalarga ko'ra, milliy korxonalar asosan qo'l mehnati va yarim avtomatlashtirilgan jarayonlarga tayanadi, holbuki Turkiya, Koreya va Xitoy kabi mamlakatlarda to'liq avtomatlashtirilgan va robotlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari faoliyat yuritadi.



Shuningdek, O'zbekistonda ish haqi ko'proq stav va lavozimga bog'liq bo'lsa, xalqaro amaliyotda KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) va natijadorlik mezonlari asosida rag'batlantirish tizimi qo'llaniladi. Sifat nazorati jihatidan milliy korxonalar ko'pincha cheklangan QC (Quality Control) tizimlariga tayanadi, rivojlangan mamlakatlarda esa ISO, Lean va Six Sigma kabi xalqaro standartlar keng tatbiq etilgan. Logistika jarayonlarida ham sezilarli tafovut mavjud: O'zbekistonda ta'minot zanjirida kechikishlar tez-tez uchrasa, ilg'or xorijiy amaliyotda ERP (Enterprise Resource Planning) va SCM (Supply Chain Management) tizimlari asosida optimallashtirilgan ta'minot mexanizmlari samarali ishlaydi (3-jadval).

3-jadval. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarning empirik natijalari

Omilar	Korrelyatsiya koeffitsiyenti (r)	Talqin
Texnologik modernizatsiya	+0.72	Mehnat unumdorligiga kuchli ijobiy ta'sir
Malaka oshirish	+0.65	Umumiy samaradorlikni oshirishda muhim
Rag'batlantirish tizimi	+0.54	Mehnat unumdorligiga o'rtacha ijobiy ta'sir
Sifat boshqaruvi	+0.49	Sifatni oshirish orqali samaradorlikka ta'sir
Logistika va ta'minot	-0.58	Kechikishlar unumdorlikni pasaytiradi

Uchinchi jadvalda mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarning empirik natijalari keltirilgan. Korrelyatsiya tahliliga ko'ra, texnologik modernizatsiya ($r = +0.72$) mehnat unumdorligiga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ishchi kuchini qayta tayyorlash va malaka oshirish ($r = +0.65$) ham muhim omillar sifatida ajralib turadi. Rag'batlantirish tizimi ($r = +0.54$) va sifat boshqaruvi ($r = +0.49$) unumdorlikni oshirishda o'rtacha ijobiy ta'sirga ega bo'lsa, logistika va ta'minotdagi muammolar ($r = -0.58$) teskari ta'sir ko'rsatib, ish samaradorligini pasaytiradi.

Jadvallar tahlili shuni ko'rsatadiki, mehnat unumdorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlari — texnologik modernizatsiya, inson kapitalini rivojlantirish, samarali rag'batlantirish tizimini joriy etish va logistika jarayonlarini optimallashtirishdan iborat.

Tahlil va natijalardan ma'lum bo'lishicha, tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligini oshirish uchun ustuvor yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

Zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirish tizimlarini joriy etish.

Ishchi kuchini qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish.

KPI va ish samaradorligiga asoslangan rag'batlantirish tizimini tatbiq etish.

Sifat boshqaruvini xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yish.

Logistika jarayonlarini raqamli platformalar orqali optimallashtirish.

Mazkur chora-tadbirlar mehnat unumdorligini oshirish bilan birga, milliy korxonalarning raqobatbardoshligini va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ishchi kuchini qayta tayyorlash, sifat nazoratini kuchaytirish va samarali boshqaruv strategiyalarini joriy etish asosiy ustuvor yo'nalishlardandir. Quyidagi jadvallar ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar samaradorligini prognoz shaklida ifodalaydi (4-jadval).

4-jadval. Tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar

Omilar	Hozirgi holat (%)	Takomillashtirish yo'nalishi	Kutilayotgan natija
Texnologiya darajasi	45	Uskunalarni modernizatsiya qilish, avtomatlashtirishni kengaytirish	25–30% unumdorlik oshadi
Ishchi kuchi malakasi	60	Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish	Sifatli mahsulot ulushi 20%ga ortadi
Rag'batlantirish tizimi	40	Bonus va KPI tizimlarini joriy etish	Ishchilar motivatsiyasi va samaradorligi ortadi
Sifat nazorati	50	ISO standartlarini joriy etish va sertifikatlashtirish tizimini kuchaytirish	Eksport salohiyati kengayadi
Logistika va ta'minot	55	Ta'minot zanjirini ERP/SCM orqali optimallashtirish	Vaqt tejaladi, xarajatlar kamayadi



Tahlil natijalariga ko'ra, tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligini oshirishning eng istiqbolli yo'nalishlari texnologik modernizatsiya va avtomatlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bilan bog'liq. Bu chora-tadbirlar ishlab chiqarish samaradorligini 30 foizgacha oshirish imkonini beradi. Ishchi kuchini qayta tayyorlash tizimining yo'lga qo'yilishi esa mahsulot sifati va eksport salohiyatini barqaror o'sish traektoriyasiga olib chiqadi. Rag'batlantirish tizimining kengaytirilishi, xususan, KPI va bonus asosidagi baholash mexanizmlarini joriy etish ishchilarning motivatsiyasini oshiradi. ISO standartlarini joriy etish sifat nazorati tizimini xalqaro talablarga moslashtiradi, logistika jarayonlarining raqamlashtirilishi esa vaqt va xarajatlarni tejash orqali korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Ya'ni, prognoz natijalari shuni ko'rsatadiki, texnologik yangilanish, inson kapitalini rivojlantirish, samarali rag'batlantirish, xalqaro sifat standartlariga moslash va logistika tizimini optimallashtirish tikuv-trikotaj sanoatining mehnat unumdorligini izchil oshirishga xizmat qiladi (5-jadval).

5-jadval. Milliy va xalqaro amaliyotni qiyosiy tahlil

Jihatlar	O'zbekiston amaliyoti	Xalqaro amaliyot (Turkiya, Koreya, Xitoy)
Ishlab chiqarish jarayoni	Qo'l mehnati va yarim avtomatlashgan	To'liq avtomatlashtirilgan, robotlashtirilgan
Rag'batlantirish	Staj va lavozimga asoslangan	KPI va samaradorlik ko'rsatkichlari
Sifat nazorati	QC cheklangan usullar	ISO, Lean, Six Sigma standartlari
Logistika va ta'minot	Kechikishlar mavjud	ERP, SCM asosida optimallashtirilgan
Mehnat unumdorligi	100–120 dona/ishchi/kun	250–300 dona/ishchi/kun

Milliy va xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida muhim tafovutlar aniqlangan. O'zbekistonda ishlab chiqarish jarayonlari asosan qo'l mehnati va yarim avtomatlashtirilgan shaklda amalga oshirilayotgan bo'lsa, Turkiya, Koreya va Xitoyda to'liq avtomatlashtirilgan hamda robotlashtirilgan tizimlar keng qo'llaniladi. Rag'batlantirish tizimida O'zbekistonda staj va lavozim asosiy mezon sifatida baholansa, rivojlangan davlatlarda KPI va samaradorlik ko'rsatkichlari asos qilib olinadi. Sifat nazorati ham milliy amaliyotda cheklangan bo'lib, xalqaro tajribada ISO, Lean va Six Sigma kabi ilg'or standartlar joriy etilgan. Natijada, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari o'rtasida ikki baravardan ortiq tafovut kuzatiladi, bu esa texnologik modernizatsiya va inson kapitali rivojlanishini jadallashtirish zaruratini yaqqol ko'rsatadi (6-jadval).

6-jadval. Empirik natijalar (korrelyatsiya tahlili)

Omillar	Korrelyatsiya koeffitsiyenti (r)	Ta'sir yo'nalishi
Texnologik modernizatsiya	+0.72	Kuchli ijobiy ta'sir
Ishchi kuchini qayta tayyorlash	+0.65	Ijobiy ta'sir
Rag'batlantirish tizimi	+0.54	O'rta ijobiy ta'sir
Sifat boshqaruvi	+0.49	O'rta ijobiy ta'sir
Logistika muammolari	–0.58	Teskari ta'sir

Empirik tahlilda mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar korrelyatsiya koeffitsiyentlari orqali baholangan. Texnologik modernizatsiya ($r = +0.72$) eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida aniqlangan. Ishchi kuchini qayta tayyorlash ($r = +0.65$) va motivatsiya tizimini takomillashtirish ($r = +0.54$) ham muhim omillar hisoblanadi. Sifat nazorati ($r = +0.49$) o'rta darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq logistika muammolari ($r = -0.58$) teskari ta'sirga ega bo'lib, mahsulot yetkazib berishdagi kechikishlar va xarajatlarni unumdorlikni pasaytiradi (7-jadval).

7-jadval. Mehnat unumdorligini oshirish boshqaruv strategiyalari

Strategiyalar	Amalga oshirish yo'llari	Kutilayotgan natijalar
Texnologik modernizatsiya	Yangi uskunalarni va avtomatlashgan tizimlar joriy qilish	30% unumdorlik oshishi
Inson kapitaliga sarmoya	Qayta tayyorlash kurslari, malaka oshirish	Mahsulot sifati o'sishi
Motivatsiya va rag'batlantirish	KPI asosida baholash, bonus tizimi	Ishchilar samaradorligi oshadi
Sifat nazorati	ISO va Lean standartlarini joriy qilish	Eksport imkoniyatlari ortadi
Logistika samaradorligi	ERP va SCM tizimlaridan foydalanish	Vaqt va xarajat tejallishi



Boshqaruv strategiyalari jadvali mehnat unumdorligini oshirishning aniq yo'nalishlarini ko'rsatadi. Texnologik modernizatsiya hisobiga mehnat unumdorligini 30% gacha oshirish mumkin. Inson kapitaliga sarmoya yo'naltirish mahsulot sifati va eksport imkoniyatlarini kuchaytiradi. Motivatsiya va KPI asosida baholash tizimi ishchilarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Sifat nazoratini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda logistika jarayonlarini ERP/SCM tizimlari orqali optimallashtirish esa umumiy xarajatlarni kamaytiradi va bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Jadvallardan ko'rinib turibdiki, mehnat unumdorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlari — texnologiyani yangilash, inson kapitalini rivojlantirish, motivatsiya tizimini takomillashtirish, sifat boshqaruvini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va logistikani samarali tashkil etishdir.

Jadvallar tahlili shuni ko'rsatadiki, tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: texnologik yangilanish, inson kapitalini rivojlantirish, motivatsiya tizimini kuchaytirish, sifat nazoratini takomillashtirish va logistika jarayonlarini optimallashtirish. Ushbu strategiyalar joriy etilganda, korxonalar nafaqat ichki bozorda raqobatbardoshlikka, balki xalqaro bozorlarda ham muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, soha korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjud. Ushbu yo'nalishdagi yangilanishlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ishchi kuchining malakasini oshirish, qayta tayyorlov kurslarini yo'lga qo'yish hamda rag'batlantirish tizimini takomillashtirish mehnat unumdorligini izchil oshirishning muhim omillari sifatida qaraladi.

Milliy va xalqaro amaliyotni qiyosiy tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda to'liq avtomatlashtirilgan texnologiyalar, xalqaro sifat standartlari va KPI asosidagi motivatsiya tizimlari keng qo'llaniladi. O'zbekistonda esa bu jarayonlar cheklangan bo'lib, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari o'rtasida ikki baravargacha farq mavjud.

Empirik tahlil natijalari tasdiqlashicha, texnologik modernizatsiya va inson kapitaliga sarmoya yo'naltirish mehnat unumdorligiga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, sifat nazorati va logistika jarayonlarini takomillashtirish mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, mehnat unumdorligini oshirishning asosiy shartlari sifatida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishchi kuchini qayta tayyorlash, motivatsiya tizimini takomillashtirish, sifat standartlarini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish hamda logistika jarayonlarini optimallashtirish belgilandi.

Tikuv-trikotaj sanoatida mehnat unumdorligini oshirish omillari va boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar:

Texnologik modernizatsiya. Tikuv-trikotaj korxonalarida zamonaviy, avtomatlashtirilgan va raqamli uskunalarni joriy etish mehnat unumdorligini kamida 25–30% ga oshiradi.

Inson kapitaliga sarmoya. Xodimlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish ish sifati va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Motivatsiya tizimini takomillashtirish. KPI va samaradorlik ko'rsatkichlariga asoslangan rag'batlantirish tizimini joriy etish orqali ishchilarda tashabbuskorlik va samaradorlikni oshirish mumkin.

Sifat nazoratini kuchaytirish. ISO, Lean va Six Sigma kabi xalqaro standartlarni joriy etish mahsulot eksportbopligini oshiradi.

Logistika va ta'minot zanjirini optimallashtirish. ERP va SCM tizimlaridan foydalanish orqali mahsulot yetkazib berishdagi kechikishlar bartaraf etilib, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi.

Innovatsion boshqaruv strategiyalari. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, raqamli boshqaruv, risk-menejment va korporativ ijtimoiy mas'uliyat mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mustapaev A. Improving the Efficiency of Management of the Competencies of Workers in the Sewing and Knitwear Industry //American Journal of Corporate Management. – 2025. – T. 2. – №. 2. – C. 22-26..
2. Bheda, Rajesh, A. S. Narag, and M. L. Singla. "Apparel manufacturing: a strategy for productivity improvement." Journal of Fashion Marketing and Management: An International Journal 7.1 (2003): 12-22.
3. Joy R. A. et al. Improving quality, productivity, and cost aspects of a sewing line of apparel industry using TQM approach //Mathematical problems in engineering. – 2024. – T. 2024. – №. 1. – C. 6697213.
4. Vafoeva Dilafruz. "Ўзбекистон тикув-трикотаж корхоналари кучли ва заиф жиҳатларининг таҳлили." Economics and Innovative Technologies 11.2 (2023): 129-138.
5. Mahajan, S., Saini, H., & Kaur, A. Working Efficiency And Impediments Faced By Production Labour In Medium Sized Knitwear Units Of Ludhiana. Age (Years), 15(24), 15.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
